

## O`TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA MILLIY PORTRET

*O`roqova Nafosat Yoriyevna*

*Buxoro davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD).*

*Xayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi*

*Buxoro davlat universiteti, 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada o`zbek milliy adabiyotida yuksak mavqe egallagan, millatning o`zligini ifoda etuvchi xususiyatlarni o`zida jamlagan milliy portret masalasi O`tkir Hoshimovning “Urushning so`nggi qurboni” hikoyasi misolida yoritilgan. Maqolada hikoyada mavjud obrazlar tahlili asosiy o`rin egallagan. Obrazlarga xos milliy xarakterning namoyon bo`lishi diologlar orqali keng yoritib berilgan.*

**Kalit so`zlar:** *portret, milliylik, milliy xarakter, milliy portret, adabiy portret, personaj, obraz, prototip, xarakter, tip.*

**KIRISH.** O`zbekiston xalq yozuvchisi O`tkir Hoshimov “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari”, “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” kabi qissa, roman va teran hikoyalari bilan allaqachon muxlislar qalbidan mustahkam joy olgan taniqli adibdir. Voqelikni hayot haqiqatiga omixta qilib, asar qahramonlarining ichki olamini mukammal, to`g`ri va aniq tasvirlash, unga o`quvchini ishontira bilish adib ijodining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Tahlil uchun olingan “Urushning so`nggi qurboni” hikoyasida ham inson taqdiri, uning o`y-xayollarining nozik qirralari, badiiy qiyofasi portretda, xususan, milliy portretda o`z ifodasini topgan.

**ASOSIY QISM.** “Portret” (fr.portraire – tasvirlamoq) – personajning so`z vositasida tasvirlangan tashqi ko`rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko`z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o`quvchi tasavvurida jonlanadigan to`laqonli obrazni yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo`lmish tavsifning bir ko`rinishidir [1, 23].

O`tkir Hoshimov hayoti va ijodi bir qancha tadqiqotlar uchun manba vazifasini o`tagan. Chunonchi, Ibrohim G`ofurov, Abdug`afur Rasulov, Umarali Normatov, Murod Ibrohimov, Norboy Xudoyberganov, Matyoqub Qo`shjonov, Bahodir G`ulomov, Ozod Sharafiddinov, To`lqin Rasulov, Sobir Mirvaliyev, Salohiddin Mamajonov, Nuriddin Shukurov, Qozoqboy Yo`ldoshev, Umrzoq O`ljaboyev, Said Ahmad, Ortiq Abdullayev kabi adabiyotshunos hamda munaqqidlar ijodida yozuvchi hayoti va ijodining turli qirralari haqida mulohazalar yuritilgan.

Belinskiyning fikriga ko`ra, “milliylik yozuvchining xizmati emas, balki ijodning shoir tomonidan uncha zo`r berishni talab qilmaydigan zaruriy shartdir... Milliylik shoirni ulug` qilmaydi, balki buyuk talant shoirni milliy qiladi... agarda asar badiiy bo`lsa, u o`z-o`zidan milliy bo`ladi”. N.V.Gogol ham milliylik tog`risida gapirib: "Milliylik sarafani (ayollar kiyimi) – portret tasvirlashda emas", deydi. Binobarin, milliylik badiiy asarga, undagi voqealar, obrazlar tizimi, ularning xarakteri hamda portretiga kiygizilgan libosdir.

Qardosh xalqlar adabiyotida milliylik turli ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Xususan, “Muxtor Avezov asarlaridagi ijobiy qahramonlar siymosida qozoq xalqining milliy belgilarini ko`rsak, Berdi Kerboboyev asarlaridagi qahramonlar orqali turkman milliy xarakterini, Chingiz Aytmatov qissalarida qirg`izlarga xos xislatlarni va Oybek romanlarida o`zbek milliy xarakterini ko`ramiz. Ammmo M.Avezov ham, B.Kerboboyev ham, Ch.Aytmatov ham, Oybek ham o`zlari mansub bo`lgan xalqning milliy xarakterini mahorat bilan badiiy ifodalash orqali umuminsoniy g`oyalarni ko`tarib chiqqanlar. Milliy xususiyat xalqning urf-odatlarini, tarixiy an'analari, o`ziga xos tafakkur tarzlari, til xususiyatlari, ayni xalq yashayotgan joyning relyef-toponimik belgilari kabilarda ham yaqqol ko`rinadi” [2.88].

Zero, har bir ijodkor xoh u kichik, xoh katta hajmli turli janrga oid asarlarida turlicha uslubda, turli bo`yoqlar orqali milliy jilo, o`zgacha ruh beradi. XX asr

o`zbek adabiyotida G`afur G`ulom, Oybek, Asqad Muxtor asarlarida falsafiylik, zukkolik sezilib turadi. Qahramonlar tabiati, tashqi ko`rinishi va xatti-harakatlarida milliylik ifoda etiladi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she`riyatida ham shakl, ham ma`no serjiloligi, o`zbekona va dunyoviy ruh sezilib turadi. Rauf Parfi va Shavkat Rahmon, Usmon Azim nazmida esa bir qarashda ko`zga tashlanmaydigan, ilg`ash qiyinroq bo`lgan mulohazalar, falsafiy ohanglar tarannumi mavjud. O`zbek nasrida "ona", "haqiqiy o`zbek onasi"ni katta-yu kichik ijodiy "mo`jizalar"iga jo eta olgan. Said Ahmad va O`tkir Hoshimov kabi yozuvchilar faoliyatida portretning milliylik ifodasidagi o`rni juda ahamiyatli. Chunonchi, Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi "Hijron kunlarida" qismida Jannat xola hamda Ikrom aka portreti milliy xarakter tasvirida muhim ahamiyat kasb etadi. Jannat xolaning xastalanib qolishi, Ikromjonning qaddi bukchayib qolgani, yurak og`riqlari ularning tashqi ko`rinishi orqali tasvirlab beriladi.

Badiiy adabiyotda personaj tashqi qiyofasining tavsifi, tasviri, badiiy obraz yaratish vositalaridan biri bo`lgan portret xakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga bog`liq bo`ladi. Odatda, portret personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb bilgan jihatlarini ochib beradi.

Badiiy adabiyotda obrazlarning tashqi ko`rinishi, xatti-harakatlari, nigohlari orqali o`zbekona urf-odat hamda an`analarni, faqat o`zbeklargagina xos bo`lgan mentalitet, yurish-turish, xatti-harakat, kiyim-kechak, yuz, qo`l, oyoq va butun tana harakatlarida milliylikni o`zida mujassam etgan milliy portret tasvirlarini "Urushning so`nggi qurboni" hikoyasi misolida yaqqol kuzatishimiz mumkin.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O`tkir Hoshimovning butun boshli ijodi, xususan, hikoyalarning har birida hech bir o`zbekka begona bo`lmagan tuyg`ular, fazilat va xislatlar tarannum etiladi. Adib asarlarida o`zbekona ruhning insonparvarlik g`oyalari bilan sug`orilishi, faqat o`zbeklargagina xos bo`lgan xususiyatlar, urf-odat hamda an`analarning har bir

obraz xarakteri, xatti-harakatlari, tashqi ko`rinishi, turish-turmushida aks etishiga guvoh bo`lamiz. Yozuvchi portret chiza boshlagan ilk satrlardan boshlab mohir rassomning yoki usta hunarmandning harakatlari misol obraz va uni o`rab turgan makon, zamon to`g`risida tasvirli ma`lumotlarga ega bo`la boshlaymiz. Bu badiiy so`z qudrati bilan yaratilgan milliy portret orqali yaqqol ko`zga tashlanadi.

“Urushning so`nggi qurboni” hikoyasidagi janggohlardan ancha olisda bo`lsa ham u yetkazgan jabr-u sitamlardan bebahra qolmagan oddiy, taqdir yoziqlari qarshisida noiloj qolgan insonlarning, yetim va qarovsiz bolalar, minglab bevalar va urushga ketganlar, yaqinlari diydoriga zor bo`lgan jamiki insonlar, jang mayonlarida bo`lmasa-da, yonida o`lim tomon shoshayotgan, nochor o`g`liga qarab yurak-bag`ri ezilib ado bo`layotgan ona – o`zbek onasi timsoli chizilgan milliy portret namunasi mazkur tahlilimiz manbasi hisoblanadi:

“Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak ko`rpachaga o`tirdi. – Ol o`zing ham, dedi u tomirlari bo`rtib chiqqan qo`llari bilan sochilgan uvoqlarni og`ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo`qmidi, eslay olmadi” [3, 12-13].

Oilaning shart-sharoiti, turish-turmushi qandayligini ko`rpachaning ahvolidan ham bilib olish mumkin. Ular singari o`sha davrning boshqa oilalari ham shunday nochor, xonadon a`zolari to`yib-to`ymay ovqatlanadi yoki hammaga yetishi uchun, yashab qolish uchun ham nimadir yeyishi, shu yemak uchun masalliq topishi zarur. Urush vaqtlarida oddiy xalqning to`yib ovqatlanishi qayoqda deysiz. Hikoyadagi sochilgan uvoqlar ketma-ket tug`ilgan uch qizaloq ramzini ifodalab kelgan. Onaizorning ahvolini esa tomirlarining bo`rtib chiqqani-yu mehnat hamda sovuq sabab barmoqlarining yorilganligidan bilish mumkin. Aytish joizki, bu holat o`sha davrda xalq hayotining, og`ir turmushining mo`jaz bir ko`rinishi edi. Hikoyada qahramonlarning xatti-harakatlari va tana qismlarining tuzilishi, holati orqali shunday portret yaratilganki, bu o`zbek onasi, o`zbek oilasining milliylik ufurib turgan ko`rinishida aks etadi.

– Ovqatingdan qolmadimi? – dedi u cho`kkalab o`tirgancha choy quyayotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg`ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so`radi:

– Qolmovdi-ya. [4, 13]

Shoikrom ovqat qolmaganini bilib turib, noiloj onasining hurmati uchun xotiniga murojaat qilgan. Bu o`rinda ovqat bo`lganda allaqachon dasturxonga qo`yishga tayyor bo`lgan Xadicha ham uyali, ham iymanib “qolmovdi-ya”, deydi. Og`ir turmush, ro`zg`or yetishmovchiliklari Xadichaning sarg`ish uzunchoq yuzida aks etgan. Ro`zg`ori to`kis bo`lganda yonoqlari qizil, do`mboqqina ayol bo`larmidi, balki.

Shoikrom nigohi orqali ukasi Shone`mat ta`riflanar ekan, kasallik va muhtojlik sabab “uning qoqsuyak bo`lib qolganini, katta-katta ko`zlari nimagadir chuqur ma`no bilan o`ziga tikilganini ko`rgan edi... [3, 13] Yana bir o`rinda “Shone`mat bolaligida ham zaifgina edi. Otasi o`lganda Shoikrom oltinchida, Shone`mat ikkinchida o`qirdi. O`shanda Shone`mat yig`lamagan, ammo ichikib kasal bo`lib qolgandi. Ona-bola uni avaylab katta qilishdi. Endi bo`lsa, besh kunligi qoldimi, yo`qmi, aka bo`lib xabar ham ololmaydi” [3.17] – deb aka-ukaning ayni vaqtdagi holati tasvirlanadi.

Azaldan turkiy xalqlarda, xususan, o`zbeklarda aka-uka, opa-singillarga ohangdosh nom tanlash, ism qo`yish an`anasi mavjud. Masalan, Muzrob – Suxrob, Ahmad – Muhammad yoki Oygul – Nurgul, Zilola – Hilola kabi. Ushbu hikoyada ham aka-ukaligi mehr-oqibatidan, ismidan sezilib turishini niyat qilib Shoikrom va Shone`mat deya atalgan bo`lsa ajabmas. Bu unsur ham ikkala obrazga chizilgan milliy portretning muhim qismi bo`lib xizmat qilgan.

Muhtojlik shundayki, akani ukaga, o`g`ilni onaga ko`maklashishdan to`sib qo`ygan. Shoikrom esa yoshlik chog`laridan zaifroq bo`lgan jonajon ukasiga qaray olmayotganidan ich-etini yeydi, uka esa tabiiyki, shu bemorligi sabab oila

qurmagan, bir muddat sog`ligini saqlab turishiga kerak bo`layotgan, otliqqa-da topilmayotgan sutni olish uchun ham qurbi yetmaydigan vaziyatda qolgan. Uning qay darajada kasallanganini qoqsuyakligi, katta-katta ko`zlarining chuqur ma'no bilan yordam so`rayotgandek akasiga iltijoli boqishidan sezish qiyin emas. Shu ikki jumla orqali ta'rif berilgan Shone`matni balki musavvir ham ranglar vositasida bundan ortiq tasvirlay olmas edi.

Shoikrom qulupnayni asrab qolish niyatida majburlikdan paykallar orasiga elektr toki o`tkazmoqchi bo`lib oshxonaga kirgandagi qisqa bir jumla uning xarakter xususiyatini ochishga xizmat qilgan: "...Titroq qo`llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig`liq turgan ikki o`ram simni oldi...U chaqqon harakat qilar, a`zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o`zi payqamas, faqat bir so`zni takrorlard: "Menga desa otib tashlamaydimi!"... [3, 16] O`shanda Shoikrom yashashlari uchun oxirgi ilinjaridan biri bo`lgan qulupnayni asrab qolish uchun xuddi jang maydonida dushmanga pistirma qo`yayotgan alamzada zobit kabi g`azabda bo`lib, agar shu "dushman" tok urib o`lganda ham hech afsuslanmasligi aniq, qaytaga eng to`g`ri va zarur ishni qilgan kabi his etardi o`zini. Ammo u o`g`ri deb hisoblagan, hali ko`rmay turib ashaddiy dushmaniga aylangan "jinoatchi" o`z onasi ekanligini xayoliga ham keltirmagan edi.

Onaizorning yo`qsillik sababini uniqqan chit ko`ylagi orqali, bir kosa sutga almashmoqchi bo`lib, bir o`g`lining haqidan boshqa jigarporasi uchun noilojlikda shosha-pisha terishini ham qorong`ida xom-pishiqlik aralash qulupnay uzgani berilgan tasvir orqali sezish mumkin. Aslida, Umri xola o`z umrini uy-ro`zg`or, farzandlari-yu nevaralariga xarjlab-xarjlab, ismiga jo umrini o`ziga sarflay olmadi, bolalari uchun yashadi va ular uchun fido bo`ldi.

"Shoikrom loyli marzadan emaklab borgancha, o`zini onasining quchog`iga otdi.

– Oyijon, oching ko`zingizni! – dedi u gezarib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o`pib.

U anchadan keyin o`ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig`layotganini payqadi. Boshini ko`tarishi bilan marza chetida cho`nqayib o`tirgan Shone`matga ko`zi tushdi... Necha haftalardan buyon o`rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib emaklab chiqqan, ko`ylagining yenglari osilib turar, katta-katta ko`zlari vahima bilan boqar edi... Shoikrom onasini ko`tarishga urinar, ammo onasining gavdasi negadir hech tiklanmas edi” [3, 18].

Shoikrom bu vaziyatdan shunchalik qo`rqib ketadiki, u uchun bu dunnyoda eng aziz ne`matini yo`qotgan kabi loy marzalardan-da emaklab o`tadi. Ham sovuq, ham jon tark etgan tananing muzdayligi-da onasining yuzida o`pishiga monelik qilmadi. Shone`matning keng yengli ko`ylakda ekanligi uning avvalgidan ko`ra ancha vazn yo`qotgani; ona mehri, ovozi singgan yuragi toqat qilmay to`shakka mixlanib qolgan bo`lsa-da, onasi sabab oyoqqa turib, validasi tomon shoshilgani yozuvchi tomonidan nihoyatda ta`sirli tarzda ifodalangan. Ushbu holatning mo`jaz ko`rinishi o`g`ilning onaga, onaning esa zaifgina boshqa bir farzandiga bo`lgan mehrini, Shoikromni bir lahzada ezib qo`ygan aybdorlik hissini yozuvchi yorqin bo`yoqlarsiz so`z sehri vositasida kitobxonlar qalbiga yetkazib bera olgan. Zero, so`z – mo`jiza, u – shifo, u – darmon; u – hayot va mamot, u halokat sababchisi yo bunyodkorlik hamda ezgulik belgisi bo`lib kela oladi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytish lozimki, o`zbek adabiyotining to`lig`icha yoki qisman milliylikka yo`g`rilgan ijod namunalari millatning o`zligi, tarixiy bosqichlari, dini, urf-odati, an`ana va marosimlari, xullas, ma`naviy, ma`rifiy, madaniy qiyofasini ko`rsatishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Xususan, O`zbekiston xalq yozuvchisi O`tkir Hoshimov hikoyalarida milliy portret masalasiga juda katta e`tibor berilgan. Ulardagi obrazlarning o`ziga xos bo`lgan o`zbekona milliylik ko`rinishlari: xatti-harakatlari, tashqi ko`rinishi, o`zini tutishi hamda tana a`zolari harakatida mujassam topgan. Shu jihatlari bilan adib asarlari o`z davrining noyob ijod namunalari qatorida ko`riladi. “Urushning so`nggi qurboni” hikoyasi orqali II

jahon urushi davrida uning nuqsi aks etgan oddiy o'zbek oilasining ayanchli ahvoli qalamga olingan. Bunda qahramonlarning portreti yordamida milliylik xususiyatlari yorqin namoyon bo'lgan. Binobarin, ushbu hikoyada har bir obraz, har bir detal va portretning milliylik ruhiga yo'g'rilgani adabiy hodisa darajasiga ko'tarilgandir.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayev Ne`mat, Madraimov Abdumajid. O`zME. – Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
2. Boboyev To`xta. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O`zbekiston”, 2001. – 560 b.
3. Hoshimov O`tkir. O`zbeklar: Hikoyalar, o`ylar, hajviyalar/. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 218 b.
4. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. – T., 2005. – 272 b.